



**ONA TILI DARSLARIDA INTERNET TILI TAHLILI  
(IJTIMOIY TARMOQLARDA QO'LLANILUVCHI SO'Z VA  
HARFLAR IMLOSI YUZASIDAN)**

**<sup>1</sup>Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**<sup>2</sup>Atiyazov Saparbay Jumamuratovich**

Ilmiy rahbar: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili kafedrasida assistenti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7976510>

**ARTICLE INFO**

Received: 17<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> May 2023

Online: 27<sup>th</sup> May 2023

**KEY WORDS**

*Uslubiy g'alizlik, imloviy savodxonlik, harfiy birikma, so'z shakli, yozuv, uslubiyat.*

**ABSTRACT**

*Ushbu maqolada internet tilining muqobil til shakllari bilan farqli jihatlari yuzasidan so'z yuritilgan bo'lib, mavjud tilning buzilish omillari, so'z va jumalarning noto'g'ri tarzda qo'llanilishi, talqin qilinishi yuzasidan qarashlar mavjud. Shuningdek, maqolada o'zbek adabiy tilining ma'lum normalarida qo'llanilmaydigan harflar va so'zlarning ifoda shakllari va qolaversa, noto'g'ri qo'llanilgan harflar, jumalarning imloviy ko'rinishidagi uslubiy g'alizliklar yuzasidan amaliy qarashlar mavjud.*

Bugungi kunda kishilik jamiyatimizning aksariyat aholisi zamonaviylashgan jamiyatimizning eng so'ngi yangiliklar bilan hamnafas bo'lishga, turli ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lishga qiziqishlari baland ekanligini sezish mumkin. Shuningdek, kundalik ish faoliyatimiz yoki hayotimiz internet manbalarisiz, uyali aloqa vositalarisiz o'tmay qolmaydi. Bundan anglashiladiki, kishi hayotida ijtimoiy tarmoqlar hamda internetning o'rni katta. Internetning kommunikativ aloqadorlik jihatidan kishi hayotida bajaruvchi funksional vazifalari ko'p bo'lib, aksariyat hollarda aloqa almashinuvi, tezkor manba qidirishda keng ahamiyat kasb etadi. Biroq, har qanday jihatning ham salbiy va ijobiy tomonlari bo'lganidek, internet va internet tarmoqlarining turli zararlari ham yo'q emas.

Haqiqatdan ham, bugungi kun tilshunos olimlarining sayi harakatlari mavjud til va yozuv shaklini saqlab qolish, bu borada amalga oshiriluvchi turli hurujlarning oldini olish maqsadida ilmiy jihatdan keng tarzda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayni masala yuzasidan notiqalar, filologlar, statistik qaydlovchi kishilar va boshqalar internetda amalga oshiriladigan yozishmalar, buyurtma berish shakllari, turli reklama va e'lonlarning yozuv stili, qolaversa, muvofiqlik darajasiga e'tibor qaratilmoqda. Bugungi zamonaviylashgan va axborotlashgan jamiyatda uyali aloqa vositalari orqali turli ijtimoiy tarmoqlar: instagram, telegram, fecebook, twiter va boshqalarda smalga oshiriladigan yozishmalar, kanal va guruhlar chatlarida internet tilining mutlaqo buzilish shakllari yuzaga kelayotgan ekannligi yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar o'rnlidir. Bilamizki, O'zbekiston yoshlar mamlakati, shunday ekan unda istiqomad qiluvchi alohining aksariyati yoshlar hisoblanib, ular bilan ro'y berayotgan internet tili masalasining o'ziga xosligi katta ahamiyat kasb etadi. "Tildagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar shunday sekinlik bilan bo'ladiki, buni bir avlodning yashash davrida ajratib olish va uni qayd



qilish odatda amri maxoldir. Uch-to'rt avloddan keyin esa, tilning leksik, grammatik qatlamlaridagi siljishlar ko'zga tashlana boshlandi. Bunday siljishlarni biz bir narsa tufayli u xam bo'lsa yozuv orqali bilib olishimiz mumkin (gap yozuv paydo bo'lgandan so'nggi davr xaqida boradi). Agar yozuv bo'lmasa, til evolyustiyasi to'grisida bizda xech qanday tasavvur bo'lmasligi mumkin edi".[1] Bugungi kunda matnlar tarkibda uchrab turadigan yoki sarlavha va peshtoq'arga yopishtirilgan e'lonlarning imloviy jihatdan xato yozilishi bilan internet tilida yuzga kelgan qususrlar ikkalasi ikki masala sifatida qaraladi.

Shuningdek, kirish so'zlar, so'z gaplarning internet tilidagi o'rni ham muqobillikdan chetlashib, buzilish holatlari ko'zga tashlanadi. Internet tilida so'zlar qisqartirilishi yoki boshqacha nomlanishiga ko'ra ayrim qusurlar mavjud. Bunda assalomu alaykum o'rnida "salam, salamaleykum, draska, hellomaleykum" kabi shakllarda, yaxshi yuribsizmi jumlasining esa "yaxw yuripszm" kabi qo'llanishlari kuzatiladi. Shuni aytish mumkinki, internet tilida jarangli undoshlar o'rnida jarangsiz undoshlarning qo'llanilishi, qisqa javoblar o'rnida esa til me'yorlariga muvofiq bo'lmagan jumalarning qo'llanilishi (bo'libdi-bupti, hop, yaxshi, ha - imm, mm, hmm) ahamiyatga molik masalalardan biridir. Bunga sabab milliy qadriyatlar, ma'naviyat kabi masalalar bevosita kishilarning yozma nutqi bilan ham aloqadorlikni tashkil etadi. "Bir so'zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o'quvchi so'zni ishlatishga kam e'tibor beradi va faol lug'atidagi so'zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, o'quvchining so'z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so'zlar o'rniga olmoshlardan foydalana olmaydi. Agar o'qituvchi bir so'zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning ma'nodoshlaridan yoki shu so'z o'rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o'quvchi matnni e'tibor bilan o'qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi".[2]

Eng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarda qo'llaniluvchi so'zlarning shakliy jihatdan qisqartirilishi yoki mavjud bor harfning boshqasiga almashtirilgan holda ifodalanishi aksariyat kishilar uchun odatiy hol sanalib, internet tili sifatida qabul qilingan. Shuningdek, harflar imlosida savodxonlik darajasining tushib ketishi yoki lotin va krill harflarining qo'shaloq tarzda yozilishi kabi holatlar achinarlidir. Bu esa nutq madaniyati sohasining tarmoqlarnishida ya'ni yozma nutqda xato va kamchiliklar bilan ifodalanishi demakdir. "Veb-saytlardagi lotin yozuvi bilan bog'liq imlo xatolarining sabablari odatda quyidagilardan biri yoki bir nechta bo'ladi:

- Matn muallifi lotin alifbosini yaxshi bilmaydi va bu harflarning aynan to'g'ri yozilishidan xabari yo'q;
- Matn muallifi transliteratsiya qiluvchi dastur yordamida kirilddan lotinga o'tkazilgan matnni qayta tahrirlab chiqmaydi;

Windows operatsion tizimi bilan taqdim qilinadigan o'zbek lotin alifbosi uchun klaviatura tugmalari tartibida ushbu yuqoriga va pastga qaragan vergul ko'rinishidagi simvollar mavjud bo'lmaganligi uchun matn muallifi ularni qanday kiritishni bilmasdan, klaviaturadagi inglizcha tugmalar tartibidan foydalanib qo'ya qoladi. Yechim. Yuqorida sanab o'tilgan muammolardan birinchi ikki muammo albatta matn muallifining o'z savodlilik darajasi, lotin yozuvining imlo qoidalaridan qanchalik xabardorligiga bog'liq. Bunda albatta sayt kontent menejerining o'z ustida ishlashi, imlo qoidalari bo'yicha bilimni oshirishi kerak bo'ladi".[3] Haqiqatdan ham, internet chatlari yoki matnlari tarkibida keluvchi harflar,



raqamlar kishini hayron qoldiradi. Misol uchun: Gap tarkibida yoki soʻz tarkibida kelgan harf birikmalarining qisqartirishlarga uchrash holatlari kuzatiladi. Sh, ch, ng kabi harfiy birikmalarning internet matnlarida ifodalanishi qisqarishlarga uchraydi. Bunda ch harfining oʻrnida c harfi qoʻllanilishi, sh harfining oʻrnida w harfining qoʻllanilishi kabi holatlar ham mavjud boʻlib, oʻzbek tilidagi soʻz va iboralarning qisqartirilishi oqibatida soʻzlarning maʼno nozikliklariga putur yetishi yoki tushunarsizlik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, bugungi zamonaviylashgan va axborotlashgan davrda kishilarning ijtimoiy ish faoliyati hamda kundalik hayoti uyali aloqa vositalari bilan aloqadorlikni tashkil etadi. Buning oqibatida turli ijtimoiy tarmoqlar, yozishuvlar, kanal va saytlarda amalga oshiriladigan muloqotlar, reklama va boshqalarda imloviy jihatdan savodsizlik holatlari koʻzga tashlanadi. Shuningdek, harflar imlosining namunadagidek qoʻllanilmas ekanligi, soʻz qisqartirishlarning talab darajasida amalga oshirilmas ekanligi oʻzbek adabiy tiliga nisbatan hurmatsizlik hisoblaniladi. Shuning uchun, kishilarning atrof, jamiyatda boʻlayotgan ishlarga befarqlik munosabatida boʻlmasliklari dolzarb masalalardan biri hisoblaniladi.

### References:

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent., 1992
2. Abdiyazova Muhayyo Zaripovna, Mametova Bahorgul Yusupovna. "Nutqiy xatoliklar va ularni bartaraf etish yoʻllari" maqola. Scientific progress - 2021
3. Saidov Behzod. Oʻznetda savodsizlik muammolari yoki oʻzbek tilidagi saytlarda yilga boʻlgan eʼtibor. www.info.com